

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIGA QISQA MUDDATLI
GURUHLARDA BOLALARNI MAKTABGA TAYYORLASH****SHOMUROTOV ULUGBEK MELIKBOBOYEVICH***Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti**o'qituvchi u.shomurotov@dpi.uz**+998915107420***ABDUJABBOROVA MUXAYYO ASOMUDDIN QIZI****TOHIROVA DILNURA UMARBEEK QIZI****QODIROVA SABINA QODIR QIZI***Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti**Matematika va informatika ta'lim yo'nalishi**1-bosqich 10-MI guruh talabalari*

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotiga qisqa muddatli guruhlarda bolalarni maktabga tayyorlashning asoslari, ish rejaları va shart sharoitlarini tashkil etishini yoritilgan

Kalit so'zlar: mashg'ulotlar, tarbiyachi, bolalar, qisqa muddatli guruhlar, kunning birinchi va ikkinchiyarmi, mashg'ulot turlari, ta'lim-tarbiya.

Ta'lim-tarbiya ishini rejalashtirish pedagogning bolalar jamoasi va ota-onalar hamkorligiga, ular tomonidan birgalikdagi faoliyat doirasidagi maqsad va vazifalarni anglash, maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalar hayotini qiziqarli va foydali bo'lishini ta'minlash istagiga asoslangan.

Rejalashtirish modelini tanlashda har bir pedagogning kasbiy tayyorgarligi, tajribasi, o'z faoliyati natijalarini ko'rib, tahlil eta olishi hamda MTTdagi shart- sharoit e'tiborga olinishi zarur.

Istiqbol reja - bolalar bilan ishlashda asosiy hujjat hisoblanib, u bolalar faoliyatining barcha turlarini va ularga xos kundalik ish shakllarini rejalashtirishni talab etadi. Mazkur hujjatsiz tarbiyachining ish boshlashi tavsiya etilmaydi.

O'zini tutish madaniyati va ma'naviy fazilatlar bolalar bilan olib boriladigan tarbiyaviy jarayon mobaynida (maishiy hayotda, o'yin, mehnat, mashg'ulot jarayonida) shakllantirilishi sababli, u alohida bo'lim tarzida rejalashtirilmaydi. Shuning uchun talabning murakkablashib borishini ko'zda tutgan holda, pedagogik uslub va vositalarga tayanib, **istiqbolli rejalashtirishni** joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Istiqbolli mavzu rejasi bir oyga tuzilib, quyidagi bo'limlarni o'z ichiga oladi:

1. Ta'limiy faoliyat paytida ta'lim berish.
2. Bolalar bilan individual ish (ta'limiy faoliyatlardan keyin).

3.Ota-onalar bilan ishlash.

Rejada guruh bolalarining ro‘yxati, adabiyotlar ro‘yxati, ish kuni davomida bolalar faoliyatini tashkil etish bo‘yicha mashg‘ulotlar jadvali kiritiladi.

Kundalik reja 1-2 haftaga mo‘ljallab tuziladi. U reja-konspekt shaklida yozilib, unda butun ish kuni davomidagi faoliyat batafsil yoritiladi:

- ✓ ertalab (bolalar bilan individual ishlash, madaniy-gigiyenik va o‘z-o‘ziga xizmat ko‘nikmalarini shakllantirish bo‘yicha ish, didaktik o‘yinlar o‘tkazish va boshq.),
- ✓ mashg‘ulotlar davomida (uning turi, mavzusi, maqsadi, kerakli jihozi, mashg‘ulotning borishi),
- ✓ sayr paytida (kuzatish, mehnat, harakatli o‘yinlar, o‘yin faoliyati, yakka ishlash, bolalarning uyga ketishi).

Pedagog reja shaklini mustaqil tanlashi mumkin. Shunga qaramasdan, MTT pedagogik kengashi tomonidan tasdiqlangan reja yozishning yagona shaklidan foydalanish tavsiya etiladi.

Istiqbolga mo‘ljallangan mavzular rejasi quyidagilarni nazarda tutadi:

1. Bolalar asosiy faoliyat turlarining o‘zaro bog‘liqligini (o‘yin, mehnat, ta’lim va h).
2. Bir oyga mo‘ljallangan vazifalarning ketma-ketlik va muntazamlilik tamoyilining amalga oshirilishini.
3. Muayyan yosh guruhiga doir dasturning barcha bo‘limlaridagi vazifalarning o‘zaro bog‘liqligini.
4. Bevosita talimiy faoliyat, o‘yin, mehnat faoliyatidan keyin ayrim bolalar bilan individual ishlashning tizimli asosida olib borilishini.
5. Kuzatuvlarni bir kun oldin yoki shu kuni rejada qayd etishni.

Rejani bunday tarzda yozish turini qo‘llaganda yakuniy talimiy faoliyat, suhbat, ekskursiyalar, kompleks faoliyatlarning kuni belgilanib olinishi zarur. Bunday rejalashtirish pedagogning kuchi va vaqtini tejash bilan birga, bolalar bilan ta’lim-tarbiya ishlarining yaxlit manzarasini ko‘rish imkoniyatini yaratadi. Bu o‘z navbatida bir yilga mavzular bo‘yicha rejalashtirish, ta’lim sohalarini o‘zaro uyg‘unlashtirish, loyihalarni va bolalarning sinov-tadqiqot faoliyatini amalga oshirish hamda integral ishlash tamoyilini joriy etishda katta ahamiyat kasb etadi.

Ish rejasi:

- ta’lim-tarbiya faoliyatining maqsadi, strategik va taktik vazifalarini aniq ifoda etish;
- ta’lim-tarbiya ishining mazmunini maqsadli belgilash, uning vositalari va tashkiliy shakllanishini tanlash;
- jamoaning va har bir shaxsning ilgarilanma harakatini rejalashtirib hamda tegishli o‘zgartirishlar kiritib borish jarayonida o‘z faoliyatning istiqboldagi

natijalarini belgilash imkoniyatini yaratadi.

Ilmiy jihatdan asoslangan aniq pedagogik rejaning mavjudligi pedagog ishini yengillashtirib, uning ijodiy imkoniyatlarini oshiradi. Ta'lim- tarbiya ishini rejalashtirish pedagog, bolalar jamoasi va ota-onalarning o'zaro hamkorligiga, ular tomonidan birgalikdagi faoliyat maqsad va vazifalarini tahlil etishga asoslanadi.

O'zbekiston Respublikasining maktabgacha ta'limga qo'yiladigan Davlat talablari, bolalarni qisqa muddatli guruhlarda maktabga tayyorlash «Ilk qadam» davlat o'quv dasturi pedagoglar uchun yangi imkoniyatlarni vujudga keltiradi, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim jarayonini tashkil etishda qo'llanayotgan eski shakl va uslublarni qayta ko'rib chiqishga undaydi, pedagogik tashabbus, tajriba va ijodga keng yo'l ochadi.

«Ish kuni» shunday tashkil etiladiki, u erkin mustaqil faoliyat va kattalar bilan mashg'ulot orasida muayyan vaqt muvozanat bo'lishiga imkon yaratadi.

Har bir kun erkin faoliyat bilan boshlanadi va yakunlanadi, bunda bolalar o'z qiziqishlari bo'yicha shug'ullanadilar. (o'ynash, rasm chizish, qurish-yasash bo'yicha biror nima yasash, tengquri bilan birgalikda rasmi kitobni tomosha qilishi va h.k.)

Pedagog erkin faoliyat uchun ajratilgan vaqtdan o'yin faoliyati uslublari shakllantirish maqsadida bir necha juft, kichik guruhlar (3-4 dan bola) bilan birgalikda o'ynashda foydalanadi.

Shunday qilib, belgilangan vaqt mobaynida boshqa bolalar o'z qiziqishlari bo'yicha ishlari bilan band bo'lganda, pedagog 2-3 juftni yoki kichik guruhni (har biriga 7-10 daqiqa vaqt ajratib) qamrab olishi mumkin.

Erkin faoliyat davri barcha bolalar taklif etiladigan muloqot, suhbat bilan almashadi. Bu vaqt oldingi kundagi yorqin taassurotlar, tabiatdagi o'zgarishlar, yaqinlashib kelayotgan esdalik sanalar va h.k.ga doir erkin muloqotga bag'ishlanadi. Suhbat jarayonida pedagog keyingi kunlardagi Talimiy faoliyatlarning mavzularini rejalashtirish uchun foydalanilishi mumkin bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalarni qiziqtirayotgan dolzarb masalalarni o'zi uchun qayd etib boradi, kelajakda bolalar bilan qiziqarli o'yinlarni rejalashtiradi. Agarda guruh hayotida nizo va kelishmovchiliklar qayd etilgan bo'lsa, ularni ijtimoiy maqbul usullar bilan hal qilish yo'llarini muhokama etish, bolalarning o'zini tutish me'yor va qoidalari haqidagi tasavvurlarini aniqlashtirish, birgalikda «guruhga xos» qoidalarni ishlab chiqish mumkin.

Pedagog muhokama uchun badiiy matndan foydalanishi - ma'naviy- axloqiy mazmunga ega qisqagina hikoya, ertak, she'r o'qib berishi, bolalar bilan birgalikda kitobdagi hamda ularning hayotidagi voqealarni o'zaro taqqoslashi mumkin.

Zarur hollarda pedagog guruh doirasidagi muloqotni kelgusidagi talimiy faoliyatlarga ma'no-mazmun baxsh etadigan (mavzuni, muammoni bolalar uchun qiziqarli bo'ladigan) badiiy matnni o'qish bilan yakunlashi mumkin.

Guruh doirasidagi muloqotdan keyin kattalar bilan o'tkaziladigan ikki talimiy faoliyat (atrof-muhit bilan tanishtirish, elementar matematika, tasviriy faoliyat va boshqalar - haftaning muayyan kuniga mos ravishda) guruh xonasida o'tkaziladi va butun guruh bilan ishlashni ko'zda tutadi (muayyan mavzu va mashg'ulot mazmuniga ko'ra maktabgacha yoshdagi bolalar qandaydir vazifalarni birgalikda yoki yakka tarzda bajarish maqsadida juftlarga bo'linadi).

Ayrim bolalar ishda faol ishtirok etmasligi, chekkaroqdan boshqa bolalar faoliyatini kuzatib turishi mumkin. Bu hol bolaning mashg'ulotdan hech qanday foyda olmayotganini anglatmaydi. Keyingi gal u dadilroq bo'lib, ishga kirishiga jazm etadi.

Musiqqa yoki sport zaliga o'tganda bolalar katta yoshdagi boshqa ustozlar (musiqqa xodimi, trener) bilan muloqot yuritadi. Har kuni guruh xonasi doirasidan tashqariga chiqish bolalar hayotiga rang-baranglik olib kiradi, ularning ijtimoiy-madaniy makonini kengaytiradi. Ushbu talimiy faoliyatning bir qismini pedagog bolalar bilan birga o'tkazishi, boshqa qismini esa - yengil nonushta tayyorlashga sarflashi mumkin (agarda u ota-onalar iltimosi bilan tashkil etilayotgan bo'lsa). Birgalikda ovqatlanish bolalar guruhining jipslashuviga xizmat qiladi. Nonushta paytida erkin, qulay muhitni vujudga keltirish, bolalarning bir-biri bilan o'tgan talimiy faoliyatlardan olgan taassurotlari bilan bemalol fikr almashishiga imkon berish zarur. Nonushtadan keyin pedagogga stolni tartibga keltirish uchun navbatchilar yordamlashadi.

Kun bolalarning erkin faoliyati bilan yakunlanadi. Ayni shu vaqtda pedagog haftada ikki marta bir necha bolani (qo'shimcha mashg'ulot zarur bo'lganlarni) kommunikativ treningga taklif etadi. Barcha xohlovchilar ularga qo'shilishi mumkin. Har bir guruh bilan mashqlar majmui 10 daqiqaga mo'ljallangan. Hafta kunlardan birini pedagog bolalarda o'yin faoliyatini usullarini rivojlantirish maqsadida ular bilan o'ynashga bag'ishlaydi.

Kattalarning bolalar bilan o'yini va kommunikativ treningning tashkiliy o'ziga xosligiga e'tibor qaratish lozim: pedagog bu ishni bolalarning erkin mustaqil faoliyati bilan bir vaqtda amalga oshiradi. Bu jarayonda pedagog kichik guruhlar bilan ishlaydi, u bolalarni o'yin yoki suhbatga maxsus jalb qilishi yoki xohlovchilarni taklif etishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Ilk qadam" davlat o'quv davturi, Toshkent-2018.
2. Hasanboeva O.U. va boshq. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. - Toshkent: Ilm ziyo, 2006.
3. Qayumova N.M. Maktabgacha pedagogika. - Toshkent: TDPU nashriyoti, 2013.
4. Melikboboyevich, S. U. (2024). BOLALARNING PSIXIK RIVOJLANISHIGA O'YINCHOQLARNING TA'SIRI. *SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR JURNALI*, 2(2), 172-179.

5. MELIKBOBOYEVICH, S. U., QIZI, O. R. Z. S., & QIZI, Q. K. A. (2024). INSONIY MUOMALA VA MULOQOTNING PSIXOLOGIK VOSITALARI. *SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR JURNALI*, 2(2), 180-188.
6. Melikboboyevich, S. U., & Annamuhimmat o'g'li, S. A. (2024). Psixodiagnostika metodlari va ulardan foydalanish. *SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR JURNALI*, 2(2), 165-171.
7. Melikboboyevich, S. U. (2024). MEASURES TO PREVENT AGGRESSIVE ATTITUDES BY THE TEACHER TO THE STUDENT FOR LATING TO THE LESSONS. *SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR JURNALI*, 2(2), 127-134.
8. Abdukarimovich, T. Y. L., Melikboboyevich, S. U., & Isokovich, U. F. (2024). Xotira haqidagi qarashlar va xotirani rivojlantirish. *SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR JURNALI*, 2(2), 109-117.
9. Melikboboyevich, S. U., & Yusufaliyevna, H. S. (2024). EDUCATOR'S SKILL IN ELIMINATING AGGRESSIVE SITUATIONS OF CHILDREN RAISED IN PRESCHOOL EDUCATION ORGANIZATION. *SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR JURNALI*, 1(6), 611-616.
10. Melikboboyevich, S. U. (2024). CHANGES IN STUDENTS' MENTAL STATUS DURING MASTERING THEORETICAL AND PRACTICAL TRAINING (IN THE EXAMPLE OF AGGRESSION). *SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR JURNALI*, 2(2), 142-148.
11. Melikboboyevich, S. U., Xudayar o'g'li, M. A., & Dilshod Abdimo'min o'g, M. (2024). SPORTCHILARDA HISSIY-IRODAVIY SIFATLARNI RIVOJLANTIRISH. *NAZARIY VA AMALIY FANLARDAGI USTUVOR ISLOHOTLAR VA ZAMONAVIY TA'LIMNING INNOVATSION YO'NALISHLARI*, 1(2), 72-84.
12. Melikboboyevich, S. U. (2024). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR FAOLIYATNING PSIXOLOGIK TAHLILI. *NAZARIY VA AMALIY FANLARDAGI USTUVOR ISLOHOTLAR VA ZAMONAVIY TA'LIMNING INNOVATSION YO'NALISHLARI*, 1(2), 93-103.
13. Melikboboyevich, S. U. (2024). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA O 'YIN FAOLIYATINING XUSUSIYATLARI. BOLA HAYOTIDA O 'YINNING AHAMIYATI. *NAZARIY VA AMALIY FANLARDAGI USTUVOR ISLOHOTLAR VA ZAMONAVIY TA'LIMNING INNOVATSION YO'NALISHLARI*, 1(2), 85-92.